



NABIJON BOQIY QISSALARIDA HUJJATLILIK VA BADIY TO‘QIMANING POETIK SINTEZI

(“Gulzamira” va “Bir muhabbat qissasi” qissalari misolida)

<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.102>

Abdupattayev G‘ulomjon G‘ofurjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti Filologiya kafedrası o‘qituvchisi
abdupattayevgulomjon98@gmail.com, +998905675097
ORCID: 0009-0009-5347-1926

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek nasrining vakili Nabijon Boqiyning “Gulzamira” va “Bir muhabbat qissasi” asarlarida hujjatlilik hamda badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati poetika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy voqelikning badiiy matnda estetik transformatsiyasi, roviy nutqi, narrativ vaqt va makon kategoriyalarining funksional xususiyatlari hamda tarixiy xotiraning individual inson taqdiri orqali ifodalanish mexanizmlari aniqlangan.

Qissalarning qiyosiy tahlili asosida Nabijon Boqiy nasrida tarixiy fakt, psixologik tasvir va badiiy umumlashtirish uyg‘unligiga asoslangan poetik model mavjudligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy o‘zbek qissachiligida hujjatli-badiiy tafakkur sintezini o‘rganishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Nabijon Boqiy, qissa poetikasi, hujjatlilik, tarixiy xotira, narrativ struktura, badiiy tafakkur, poetik model, zamonaviy o‘zbek nasri.

Аннотация В данной статье с позиций поэтики анализируется взаимодействие документальности и художественного вымысла в повестях современного узбекского писателя Набиджона Бокия «Гулзамира» и «История одной любви». В исследовании рассматриваются механизмы эстетической трансформации исторической реальности в художественном тексте, функциональные особенности повествовательной структуры, категории художественного времени и пространства, а также способы выражения исторической памяти через индивидуальную судьбу человека. На основе сравнительного анализа произведений выявлено, что проза Набиджона Бокия характеризуется наличием целостной поэтической модели, основанной на синтезе исторического факта, психологического изображения и художественного обобщения.

Полученные результаты способствуют углублению теоретических представлений о документально-художественном синтезе в современной узбекской прозе.

Ключевые слова: Набиджон Бокий, поэтика повести, документальность, историческая память, повествовательная структура, художественное мышление, поэтическая модель, современная узбекская проза.

ABSTRACT This article analyzes the poetic interaction between documentary reality and artistic fiction in Nabijon Boqi’s novellas *Gulzamira* and *A Story of Love* within the framework of modern Uzbek prose studies. The research examines the aesthetic transformation of historical reality, narrative discourse, temporal and spatial categories, and the representation of historical memory through individual human experience. Comparative analysis reveals that Nabijon Boqi’s prose is based on a specific poetic model integrating historical fact, psychological portrayal, and artistic generalization. The findings contribute to the theoretical understanding of documentary-artistic synthesis in contemporary Uzbek narrative prose.

Keywords: Nabijon Boqi, novella poetics, documentary prose, historical memory, narrative structure, artistic representation, Uzbek modern prose.

KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy matni o‘rganish jarayoni voqelikni aks ettirish masalasidan ko‘ra uning estetik transformatsiyasi mexanizmlarini aniqlashga yo‘naltirilmoqda. Ayniqsa, tarixiy haqiqat va badiiy tafakkur o‘rtasidagi munosabat masalasi XX–XXI asr nasrining muhim nazariy muammolaridan biri sifatida qaraladi. Adabiy asarda real voqelikning qaydarajada hujjat sifatida saqlanishi yoki badiiy tizimga aylanishi masalasi poetika tadqiqotlarining markaziy yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Rus adabiyotshunosligi namoyandasi V. Shklovskiy ta’kidlaganidek: “Badiiy asarning asosiy vazifasi voqelikni oddiy aks ettirish emas, balki uni “begonalashtirish” orqali yangi estetik idrok hosil qilishdan iborat”.¹⁰⁹ Mazkur qarash badiiy matnda faktning san’at hodisasiga aylanish jarayonini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Keyinchalik Yu. Lotman¹¹⁰ badiiy matni murakkab semiotik tizim sifatida talqin qilib, unda real tarixiy material estetik kodlar orqali qayta tashkil etilishini ko‘rsatadi. Demak, hujjatli asos adabiy matnda o‘zining dastlabki informativ vazifasidan chiqib, poetik ma’no hosil qiluvchi elementga aylanadi.

M. Baxtinning¹¹¹ badiiy tafakkurning dialogic tabiati haqidagi qarashlariga ko‘ra, badiiy matn turli ijtimoiy ovozlar va tarixiy ong qatlamlarining o‘zaro muloqoti natijasida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, tarixiy voqelikni tasvirlovchi nasriy asarlar muallif nutqi, qahramon tafakkuri hamda davr ruhiyati o‘rtasidagi dialog asosida poetik tizim hosil qiladi. G. Genette¹¹² esa narrativ struktura tahlilida roviy pozitsiyasi va vaqt kategoriyasining badiiy mazmun shakllanishidagi hal qiluvchi rolini alohida ta’kidlaydi.

¹⁰⁹ Shklovsky V. *Theory of Prose*. Champaign: Dalkey Archive Press, 1990.

¹¹⁰ Lotman Yu. M. *The Structure of the Artistic Text*. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1977.

¹¹¹ Bakhtin M. M. *The Dialogic Imagination: Four Essays*. Austin: University of Texas Press, 1981.

¹¹² Genette G. *Narrative Discourse: An Essay in Method*. Oxford: Basil Blackwell, 1980.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham tarixiy-badiiy tafakkur masalasi bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. N. Karimov, B. Nazarov, U. Normatov singari tadqiqotchilar milliy nasr taraqqiyotida tarixiy xotira va badiiy talqin uyg‘unligini zamonaviy adabiy jarayonning muhim belgilaridan biri sifatida baholaydilar. Biroq hujjatli asosga ega qissalarning poetik mexanizmlarini individual yozuvchi ijodi doirasida monografik tahlil qilish masalasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Yangi O‘zbekiston nasrida hujjatli-badiiy tafakkur sintezini o‘ziga xos uslubda namoyon etgan ijodkorlardan biri Nabijon Boqiydir. Adibning “Gulzamira” hamda “Bir muhabbat qissasi” qissalarida tarixiy faktlar, ijtimoiy muhit va insoniy taqdir o‘zaro uyg‘unlashib, voqelikning badiiy modelini yaratadi. Mazkur asarlarda tarixiy material oddiy voqealar bayoni sifatida emas, balki qahramon ruhiyati, xotira va milliy ong orqali poetik qayta ishlanadi.

Shu jihatdan mazkur tadqiqotning dolzarbligi Nabijon Boqiy qissalarida hujjatlilik va badiiy to‘qima o‘rtasidagi munosabatni poetika nuqtai nazaridan aniqlash zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi yozuvchi qissalarida tarixiy faktning badiiy struktura tarkibiga kirish jarayonini hamda hujjatli materialning poetik funksiyasini ilmiy asoslashdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- 1) qissalarda hujjatli voqelikning badiiy transformatsiya mexanizmlarini aniqlash;
- 2) roviy nutqi va narrativ strukturaning poetik funksiyasini tahlil qilish;
- 3) tarixiy xotira va individual taqdir uyg‘unligini ochib berish;
- 4) Nabijon Boqiy qissalarining poetik modelini aniqlash.

METODLAR

Mazkur tadqiqotda Nabijon Boqiy qissalarining poetik xususiyatlarini aniqlash maqsadida kompleks adabiyotshunoslik metodologiyasiga tayanildi. Tadqiqot jarayonida badiiy matnni ko‘p qatlamli estetik tizim sifatida o‘rganishga imkon beruvchi zamonaviy poetik va narratologik yondashuvlar qo‘llanildi.

Avvalo, tadqiqotning asosiy metodologik tayanchi sifatida **poetik tahlil metodidan** foydalanildi. Adabiyot nazariyotchisi V. Xalizev shunday deydi: “Badiiy asar poetikasi uning mazmuni va shakli o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi”.¹¹³ Shu nuqtai nazardan qissalarning syujet-kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi, badiiy detal hamda tasvir vositalari yaxlit estetik struktura sifatida o‘rganildi. Mazkur metod yozuvchi tomonidan tarixiy materialning badiiy shaklga aylanish mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda **narratologik yondashuv** ham muhim o‘rin egallaydi. G.Genette tomonidan ishlab chiqilgan narrativ nazariya asosida roviy pozitsiyasi, hikoya qilish darajalari, vaqt va makon kategoriyalarining matn semantikasini shakllantirishdagi roli tahlil qilindi. Ushbu metod

¹¹³ Xalizev V. E. Teoriya literatury. Moskva: Vysshaya shkola, 2004.

yordamida Nabijon Boqiy qissalarida muallif nutqining tarixiy voqelikni badiiy ong orqali qayta tashkil etish funksiyasi aniqlashtirildi.

Shuningdek, M. Baxtinning dialog konsepsiyasiga tayangan holda **diskursiv tahlil** usuli qo‘llanildi. Bu yondashuv qissalarda turli ijtimoiy ong qatlamlari – tarixiy tajriba, shaxsiy xotira va muallif pozitsiyasi o‘rtasidagi muloqot jarayonini ochib berishga xizmat qildi. Natijada badiiy matnning ko‘p ovozlilik xususiyati hamda tarixiy haqiqatning individual idrok orqali ifodalanish mexanizmi aniqlashtirildi.

Tadqiqotda **tarixiy-tipologik metod**dan foydalanish orqali asarlarda aks etgan ijtimoiy muhit va tarixiy jarayonlarning badiiy talqini o‘rganildi. Ushbu metod qahramonlar taqdiri va davr voqeligi o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash imkonini berdi hamda hujjatli asosning poetik funksiyasini belgilashga xizmat qildi.

Bundan tashqari, “Gulzamira” va “Bir muhabbat qissasi” asarlarining badiiy qurilishi o‘zaro solishtirilishi maqsadida **komparativ (qiyosiy) tahlil metodi** qo‘llanildi. Mazkur yondashuv yozuvchi poetikasida takrorlanuvchi estetik prinsiplarga aniqlik kiritish hamda individual uslubning barqaror komponentlarini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi.

Matnshunoslik usuli asosida qissalardan olingan epizodlar, dialoglar va tasviriy detallar semantik jihatdan tahlil qilindi. Bu jarayonda badiiy detalning ramziy yuklamasi hamda tarixiy faktning estetik transformatsiyasi aniqlashtirildi.

Qo‘llanilgan metodlar majmui Nabijon Boqiy qissalarida hujjatlilik va badiiy to‘qima o‘rtasidagi munosabatni tizimli ravishda o‘rganish, shuningdek yozuvchi nasrining poetik modelini ilmiy asosda aniqlash imkonini berdi.

NATIJALAR

Hujjatli voqelikning badiiy obrazga transformatsiyasi (“Gulzamira” qissasi misolida)

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Nabijon Boqiyning “Gulzamira” qissasida tarixiy voqelik bevosita bayon shaklida emas, balki badiiy ong orqali qayta yaratilgan poetik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda muhojirlik, siyosiy bosim va tarixiy fojia individual inson taqdiri bilan uyg‘unlashtiriladi. Shu jihatdan yozuvchi hujjatli materialni estetik transformatsiya jarayonidan o‘tkazadi.

Yu. Lotman ta’kidlaganidek, badiiy matnda tarixiy fakt informatsion birlik sifatida emas, balki semantik model hosil qiluvchi belgiga aylanadi. “Gulzamira” qissasida ham tarixiy sharoit qahramon ruhiyatini ochuvchi poetik fon vazifasini bajaradi. Muallif tarixiy voqealarni sanab o‘tishdan ko‘ra ularning inson ongida qoldirgan izlarini tasvirlashga intiladi.

Qissada muhojirlik holati tashqi voqea sifatida emas, balki ichki fojia sifatida talqin etiladi. Qahramon taqdirining iztirobli tasviri orqali tarixiy jarayonning inson ruhiyatiga ta’siri ochib beriladi. Masalan, asarda vatandan uzilish holati tasvirlanar ekan, makon tasviri psixologik mazmun kasb etadi. Qahramonning begona muhitdagi ruhiy holati tasvirida tashqi makon ichki iztirob bilan uyg‘unlashadi. Bu esa tarixiy faktning psixologik poetikaga aylanishini ko‘rsatadi.

M. Baxtinning dialog nazariyasiga ko‘ra, badiiy matn turli onglar o‘rtasidagi muloqot mahsulidir. “Gulzamira” qissasida ham muallif nutqi, qahramon tafakkuri hamda tarixiy davr ovozi o‘zaro dialog hosil qiladi. Natijada tarixiy haqiqat yagona pozitsiyada emas, balki ko‘p qirrali idrok shaklida namoyon bo‘ladi.

Qissada roviy pozitsiyasi alohida poetik funksiyani bajaradi. Roviyo voqealarni oddiy kuzatuvchi sifatida emas, balki tarixiy xotirani saqlovchi ong sifatida namoyon bo‘ladi. G. Genette nazariyasiga muvofiq, hikoya qilish darajasining o‘zgarishi voqelikning badiiy idrokini kuchaytiradi. Asarda retrospektiv bayon usuli orqali o‘tmish va hozirgi zamon qatlamlari o‘zaro tutashadi.

Shuningdek, qissada badiiy detal hujjatlilikni poetiklashtiruvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tarixiy muhitga oid tasvirlar, kundalik hayot unsurlari va ijtimoiy belgilar voqelikni ishonchli ko‘rsatish bilan birga estetik umumlashtirish vazifasini bajaradi. Natijada faktik material badiiy timsol darajasiga ko‘tariladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Gulzamira” qissasida hujjatlilik va badiiylik qarama-qarshi hodisalar emas, balki yagona poetik tizimning o‘zaro bog‘liq komponentlari sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi tarixiy haqiqatni qayta yaratish orqali individual inson fojiasini umumxalq xotirasining badiiy modeliga aylantiradi.

Tarixiy voqelikning poetik talqini (“Gulzamira” qissasi misolida)

Nabijon Boqiyning “Gulzamira” qissasida tarixiy voqelik bevosita faktlar bayoni tarzida emas, balki badiiy makon va inson taqdiri orqali poetik talqin qilinadi. Asar boshidayoq tarixiy muhit tasviri qahramon ruhiyati bilan uzviy bog‘langan holda berilib, voqelik estetik mazmun kasb etadi.

Qissada tasvirlangan O‘rtato‘g‘ay makoni oddiy geografik hudud emas, balki tarixiy ziddiyatlar kesishgan ramziy makon sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif muhojirlik muhitini tasvirlar ekan, chegaraviy hududni quyidagicha ifodalaydi: “Kechuvning so‘l sohili Afg‘oniston, o‘ng sohili Sho‘ro Turkistoni edi.”¹¹⁴ Mazkur tasvir tarixiy voqelikni konkretlashtirish bilan birga inson taqdirining siyosiy makon bilan bog‘liqligini ham ochib beradi. Chegara tushunchasi bu yerda faqat hududiy ajralish emas, balki inson hayotining bo‘linishi ramzi sifatida talqin qilinadi.

Asarda makon tasviri yanada chuqurlashib, tarixiy beqarorlik sharoitida yashayotgan insonlarning holati bilan uyg‘unlashadi. Muallif O‘rtato‘g‘ayni quyidagicha tavsiflaydi: “O‘rtato‘g‘ay, haqiqatan ham, davlat chegaralari-yu asov daryo ertaligidagi daxlsiz bir makon edi. Aholi u yoqqa ham, bu yoqqa qatnayvermasdi, o‘z holicha – ibtidoiyroq yo‘sinda umrguzaronlik qilardi”.¹¹⁵

Ushbu epizod tarixiy muhitning poetik funksiyasini yaqqol namoyon etadi. Makon tasviri orqali muhojirlar hayotining noaniqligi, chegaralar oralig‘ida qolgan taqdirilar fojeasi

¹¹⁴ Nabijon Boqiy. Rohila. Qissalar. Toshkent: “Anorbooks”, 2002. 190-b.

¹¹⁵ Yuqoridagi manbaa. 191-b.

badiiylashtiriladi. Natijada tarixiy voqelik tashqi fon emas, balki syujet va obrazlar ruhiyatini belgilovchi poetik omilga aylanadi.

Adabiyot nazariyotchisi V. Shklovskiy ta’kidlaganidek, badiiy tasvir voqelikni yangicha idrok etishga xizmat qiladi. “Gulzamira” qissasida ham tarixiy hudud tasviri oddiy realistik bayon darajasidan chiqib, insoniy kechinmalarni ifodalovchi estetik makonga aylantiriladi.

Qissada roviy nutqi tarixiy jarayonni xolis qayd etuvchi emas, balki uni his etuvchi ong sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli muallif bayonida tarixiy muhit, inson taqdiri va xotira qatlamlari o‘zaro uyg‘unlashadi. M. Baxtinning dialog nazariyasiga ko‘ra, badiiy matn turli ong pozitsiyalarining o‘zaro muloqoti asosida shakllanadi va “Gulzamira” qissasida aynan shu ko‘p qatlamli bayon usuli kuzatiladi.

Shunday qilib, asarda hujjatli tarixiy muhit poetik talqin orqali insoniy tajribaga aylantirilib, tarixiy haqiqat badiiy ong vositasida estetik model darajasiga ko‘tariladi.

Tarixiy xotira va avlodlar taqdirining poetik talqini

(“Bir muhabbat qissasi” misolida)

Nabijon Boqiyning “Bir muhabbat qissasi” qissasida tarixiy voqelik individual inson taqdiri orqali emas, balki avlodlar davomiyligi prizmasida talqin qilinadi. Asarda tarixiy jarayon inson hayotiga tashqi bosim sifatida emas, balki ong va xotira orqali yashab qoluvchi ruhiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Qissaning boshlanishidayoq muallif makon tasviri orqali tarixiy qatlamni poetiklashtiradi. Jamol obrazining yerto‘laga tushish epizodi nafaqat voqelik tasviri, balki o‘tmishga ramziy qaytish sifatida talqin qilinadi:

“Yerto‘laning g‘o‘zapoya to‘shalgan pog‘onalarini bir-bir bosib, pakana kishining bo‘yi ko‘rnmaydigan darajada quyiga tushilgach, uvadalari titilib yotgan eski to‘shak qoplangan eshikka yuzma-yuz kelinadi...”¹¹⁶

Mazkur tasvir Lotman ta’kidlagan badiiy makonning semantik ikki qatlamligini namoyon etadi. Yerto‘la real makon bo‘lish bilan birga tarixiy xotira ramziga aylanadi. Qahramonning pastga harakati o‘tmish qatlamlariga kirib borish jarayonini ifodalaydi.

Asarda tarixiy xotira bevosita avlodlar orasidagi ruhiy bog‘lanish orqali ochiladi. Jamol va uning buvasi o‘rtasidagi suhbat tarixiy fojining individual inson taqdirida davom etayotganini ko‘rsatadi. Buvaning quyidagi so‘zlari tarixiy travmaning poetik ifodasidir:

- *Buva, men yana bir marta Toshkentga borib kelmoqchiman. Agar Adilani ko‘ndirolsam, birga olib kelaman – to‘yni shu yerda o‘tkazamiz. O‘zingiz oq fotiha berasiz.*
- *U rozi bo‘lmaydi. Qolaversa, men bu dunyoning ishlariga aralashmayman. Bilganingni qilaver, meni hisobdan chiqarib tashlagin, men sonda bor-u, sanoqda yo‘q odamman...”¹¹⁷*

¹¹⁶ Yuqoridagi asar. 45-b.

¹¹⁷ Yuqoridagi asar. 46-b.

Bu jumla oddiy dialog emas, balki tarixiy repressiya natijasida shaxsning ijtimoiy mavjudlikdan siqib chiqarilishining badiiy formulasi sifatida namoyon bo‘ladi. Baxtin nazariyasiga ko‘ra, bunday nutq shakli individual ovoz orqali davr ongini ifodalaydi.

Qissada hujjatlilik elementlari ayniqsa tarixiy detal orqali kuchayadi. Masalan, buva qo‘lida saqlanayotgan qurol va o‘tmish bilan bog‘liq xotiralar tasviri tarixiy haqiqatni konkretlashtiradi:

“...buvangning eski mauzeri... Buni menga Madaminbek qo‘rboshi o‘z qo‘li bilan topshirgan’, deb maqtanib yurardi.”¹¹⁸

Mazkur epizod hujjatli tarixiy faktni badiiy obraz darajasiga olib chiqadi. Bu yerda predmet oddiy detal emas, balki milliy ozodlik harakati xotirasining ramziy belgisi vazifasini bajaradi.

Qissaning poetik kuchi tarixiy voqelikning kundalik hayot bilan uyg‘unlashuvida namoyon bo‘ladi. Jamol obrazining zamonaviy hayot sari harakati bilan o‘tmish yukini olib yurishi narrativ qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Natijada vaqt kategoriyasi ikki yo‘nalishda – tarixiy o‘tmish va zamonaviy ong orasida harakat qiladi.

Genette ta’riflagan narrativ vaqt siljishi aynan shu jarayonda kuzatiladi: voqea rivoji hozirgi zamonda kechsa-da, mazmuniy markaz o‘tmishda qoladi. Shu sababli qissada tarixiy xotira syujetni harakatlantiruvchi asosiy poetik omilga aylanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Bir muhabbat qissasi” asarida muhabbat motivi ham individual hissiy holat emas, balki tarixiy jarohatdan chiqishning estetik shakli sifatida talqin qilinadi. Qahramonning kelajak sari intilishi o‘tmish bilan uzilmagan ruhiy bog‘liqlik fonida tasvirlanadi. Natijada shaxsiy muhabbat voqeasi milliy tarixiy tajribaning badiiy davomiga aylanadi.

“Gulzamira” va “Bir muhabbat qissasi” qissalarining qiyosiy tahlili Nabijon Boqiy nasrida yagona poetik model mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu model quyidagi komponentlar asosida shakllanadi:

- ✓ tarixiy fakt
- ✓ individual xotira
- ✓ psixologik tajriba
- ✓ badiiy umumlashtirish.

Shu tariqa yozuvchi hujjatli materialni estetik tizimga aylantirib, tarixiy voqelikni insoniy taqdir orqali poetiklashtiradi.

MUHOKAMA

Olib borilgan tahlillar Nabijon Boqiy qissalarida hujjatlilik va badiiylik o‘rtasidagi munosabat zamonaviy o‘zbek nasrida shakllanayotgan yangi poetik tendensiyalardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Adib ijodida tarixiy voqelik faktlar yig‘indisi sifatida emas, balki inson

¹¹⁸ Yuqoridagi asar. 48-b.

ruhiyati orqali qayta yaratilgan estetik model sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihat yozuvchi nasrini an’anaviy tarixiy qissachilikdan farqlaydi.

Adabiyotshunos V. Xalizev¹¹⁹ badiiy asar poetikasini mazmun va shaklning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keluvchi yaxlit tizim sifatida baholaydi. Nabijon Boqiy qissalarida ham aynan shu uyg‘unlik kuzatiladi: tarixiy material syujet asosini tashkil etsa-da, uning badiiy qiymati qahramonning ichki kechinmalari orqali ochiladi. Demak, yozuvchi uchun tarixiy fakt maqsad emas, balki poetik ifoda vositasidir.

Yu. Lotman¹²⁰ badiiy matnni madaniy xotirani saqlovchi semiotik mexanizm sifatida talqin qiladi. “Gulzamira” va “Bir muhabbat qissasi” asarlarida tarixiy xotiraning individual ong orqali berilishi ushbu nazariy qarashni tasdiqlaydi. Har ikki asarda o‘tmish voqealari syujet fonida emas, balki qahramon tafakkurida yashovchi ruhiy tajriba sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli tarixiy makon psixologik makonga, vaqt esa subyektiv idrok kategoriyasiga aylanadi.

M. Baxtinning dialog konsepsiyasi nuqtai nazaridan qaralganda, Nabijon Boqiy qissalarida ko‘p ovozlilik hodisasi yaqqol kuzatiladi. Muallif nutqi, qahramon xotirasi va tarixiy davr ovozi o‘zaro dialogga kirishadi. Natijada tarixiy haqiqat yagona ideologik pozitsiyada emas, balki turli ong qatlamlari kesishuvida ochiladi. Bu esa yozuvchi nasrining polifonik xarakter kasb etganini ko‘rsatadi.

O‘zbek nasrida tarixiy mavzuni badiiy talqin qilish an’anasi mavjud bo‘lsa-da, Nabijon Boqiy ijodining o‘ziga xosligi hujjatli asosning psixologik poetika bilan uyg‘unlashuvida namoyon bo‘ladi. Agar an’anaviy tarixiy qissalarda voqea markazda tursa, Nabijon Boqiy nasrida insoniy xotira va ruhiy tajriba markaziy o‘ringa chiqadi. Shu jihatdan yozuvchi nasri tarixiy realizmdan ko‘ra xotira poetikasiga yaqinlashadi.

Tahlillar natijasida Nabijon Boqiy qissalarida quyidagi poetik tamoyillar barqarorligi aniqlanadi:

- 1) tarixiy faktning psixologik talqini;
- 2) hujjatli detalning ramziy ma’no kasb etishi;
- 3) narrativ vaqtning subyektivlashuvi;
- 4) avlodlar xotirasining syujetni harakatlantiruvchi omilga aylanishi.

Mazkur xususiyatlar yozuvchi ijodida hujjatli-badiiy sintez asosida shakllangan individual poetik model mavjudligini ko‘rsatadi. Shu sababli Nabijon Boqiy qissalarini zamonaviy o‘zbek nasrida tarixiy xotirani badiiy ong orqali qayta yaratishga yo‘naltirilgan yangi estetik yo‘nalish namunasi sifatida baholash mumkin.

Olib borilgan tadqiqot natijalari Nabijon Boqiy qissalarida hujjatlilik va badiiy to‘qima o‘rtasidagi munosabat yozuvchi individual poetikasining asosiy belgilovchi omili ekanligini ko‘rsatdi. “Gulzamira” hamda “Bir muhabbat qissasi” asarlarining poetik tahlili tarixiy voqelik

¹¹⁹ Xalizev V. E. Teoriya literatury. Moskva: Vysshaya shkola, 2004. 16-s.

¹²⁰ Lotman Yu. M. Analiz poeticheskogo teksta. Leningrad: Prosveshcheniye, 1972.

adib ijodida faktik material sifatida emas, balki inson ruhiyati va xotirasi orqali qayta yaratilgan estetik model sifatida namoyon bo‘lishini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida tarixiy faktlarning badiiy struktura tarkibiga kirish jarayoni psixologik tasvir, narrativ vaqt siljishi hamda ramziy detal tizimi orqali amalga oshirilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Qissalarda tarixiy makon individual ong bilan uyg‘unlashib, badiiy makonga aylanishi, vaqt kategoriyasining esa subyektiv idrok asosida qayta tashkil etilishi yozuvchi poetikasining muhim xususiyatlaridan biri sifatida belgilandi.

Aniqlanishicha, Nabijon Boqiy nasrida hujjatlilik va badiiylik qarama-qarshi hodisalar emas, balki yagona poetik tizimning o‘zaro bog‘liq komponentlarini tashkil etadi. Tarixiy voqelik qahramonlarning shaxsiy kechinmalari orqali umumlashib, milliy xotiraning badiiy ifodasiga aylanadi. Natijada individual inson taqdiri tarixiy jarayonning estetik modeli sifatida talqin qilinadi.

Qiyosiy tahlillar asosida yozuvchi qissalarida barqaror poetik model mavjudligi aniqlandi. Mazkur model tarixiy faktning psixologik talqini, hujjatli detalning ramziy-estetik funksiyasi, narrativ vaqtning subyektivlashuvi, avlodlar xotirasining syujetni shakllantiruvchi omilga aylanishi tamoyillariga asoslanadi.

Shu jihatdan Nabijon Boqiy qissalari zamonaviy o‘zbek nasrida hujjatli-badiiy tafakkur sintezining muhim bosqichini tashkil etib, tarixiy xotirani badiiy ong orqali qayta yaratishga yo‘naltirilgan poetik yo‘nalishning shakllanishini namoyon etadi.

Tadqiqot natijalari hujjatli asosga ega nasriy asarlarni poetika nuqtai nazaridan o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda zamonaviy o‘zbek qissachiligida tarixiy tafakkur va badiiy tasvir uyg‘unligini tadqiq etishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Nabijon Boqiyning “Gulzamira” va “Bir muhabbat qissasi” qissalarining poetik tahlili yozuvchi nasrida tarixiy voqelikni badiiy idrok etish o‘ziga xos estetik tamoyillar asosida amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Adib ijodida hujjatli material voqealar bayoni sifatida emas, balki inson ruhiyati, xotira va individual tafakkur orqali qayta yaratilgan badiiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari Nabijon Boqiy qissalarida tarixiy haqiqatning poetik talqini psixologik tasvir, narrativ vaqtning subyektivlashuvi hamda ramziy detal tizimi orqali amalga oshirishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, tarixiy xotiraning avlodlar davomiyligi orqali berilishi yozuvchi nasrining muhim badiiy xususiyatlaridan biri ekanligi aniqlandi.

Har ikki qissada tarixiy voqelik individual inson taqdiri bilan uyg‘unlashib, milliy ong va ijtimoiy tajribaning badiiy modelini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan Nabijon Boqiy nasri hujjatli va badiiy tafakkur sinteziga asoslangan poetik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar asosida yozuvchi qissalarida tarixiy fakt, shaxsiy xotira va badiiy umumlashtirish o‘zaro uyg‘unlashgan yaxlit poetik model shakllangani ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur holat Nabijon Boqiy ijodining zamonaviy o‘zbek qissachiligi taraqqiyotida alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, Nabijon Boqiy qissalari tarixiy xotirani badiiy ong orqali talqin etuvchi nasriy tafakkurning muhim namunasi bo‘lib, ularni poetika nuqtai nazaridan o‘rganish milliy adabiyotshunoslikda hujjatli-badiiy nasr tadqiqotlarini yangi ilmiy bosqichga olib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bakhtin M. M. *The Dialogic Imagination: Four Essays*. Austin: University of Texas Press, 1981.
2. Bakhtin M. M. *Speech Genres and Other Late Essays*. Austin: University of Texas Press, 1986.
3. Genette G. *Narrative Discourse: An Essay in Method*. Oxford: Basil Blackwell, 1980.
4. Lotman Yu. M. *The Structure of the Artistic Text*. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1977.
5. Lotman Yu. M. *Analiz poeticheskogo teksta*. Leningrad: Prosveshcheniye, 1972.
6. Shklovsky V. *Theory of Prose*. Champaign: Dalkey Archive Press, 1990.
7. Todorov T. *The Poetics of Prose*. Ithaca: Cornell University Press, 1977.
8. Xalizev V. E. *Teoriya literatury*. Moskva: Vysshaya shkola, 2004.
9. Ginzburg L. Ya. *O psikhologicheskoy proze*. Leningrad: Sovetskiy pisatel, 1971.
10. Karimov N. *XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
11. Nazarov B. *Adabiy jarayon va badiiy tafakkur*. Toshkent: Fan, 2012.
12. Normatov U. *Ijod sehri*. Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
13. Qo‘shjonov M. *Badiiy mahorat masalalari*. Toshkent: Fan, 1967.
14. Nabijon Boqiy. *Rohila. Qissalar*. Toshkent: “Anorbooks”, 2002. 272 b.